

Adabiy ta'lilda qiyoslab o'rganishning o'quvchi tafakkuriga ta'siri

Urganch davlat universiteti o'zbek adabiyoti 2-bosqich

magistranti Bazarbayeva Jamila

Kalit so'zlar: metod, baholash ko'nikmasi, tahlil, lirik qahramon, venn diagrammasi, organayzerlar.

Annotatsiya: ushbu maqolada qiyoslab o'qitishni o'quvchilar dunyoqarashini yuksaltirishdagi o'rni tahlilga tortilgan. Qiyoslash jarayonida maktab darsliklaridagi she'riy asarlarga murojaat qilingan.

Qiyoslash metodidan foydalanish tahlil jarayoning ko'lamdor, qamrovli, teran bo'lishi va o'quvchilarning estetik yaratiqqa xos jihatlarni yaxshiroq anglab yetishiga zamin yaratadi. Bu usul ham adabiyotlararo, ham bir adabiyot ichida, ham bir yozuvchining turli bitiklari orasida, ham bir asardagi turli obrazlar o'rtasidagi munosabatlarni teran tadqiq etishning g'oyat muhim vositasi hisoblanadi. U, bir tomondan, muayyan badiiy hodisaning haqiqiy qimmatini belgilab berishga yordam bersa, ikkinchidan, o'sha hodisaning qanchalik estetik ahamiyatga egaligini ko'rsatishda ahamiyatlidir.

Taniqli metodist prof. N.Kudryashev o'zining "Adabiyot darslarida ta'lim metodlarining o'zaro aloqasi" asarida: "...adabiy asarlarni qiyoslash keng yoyilgan ta'limiyl usul bo'lib, solishtirilayotgan har bir asarni chuqurroq o'rganish hamda adabiy-nazariy va adabiy-tarixiy xulosalar chiqarishga boy material beradi", - deb yozadi.

Qiyoslash orqali muayyan adabiy yaratiqda muallifning estetik an'analardan qanday ta'sirlangani, kimga ergashgani, mavjud badiiy tajribalarni ne miqdor boyitgani, naqadar o'ziga xosligi, bitikning milliy adabiyotda egallagan o'rni singari jihatlar ayon qilinadi. Faqat solishtirish natijasida bir adabiy asarning turli qirrasini bilib olish mumkin. Asarlarning mavzusi, g'oyasi, ifoda usuli, obrazlar tizimi, tili singari ko'plab jihatlar qiyosiy usulning obyekti bo'lishi mumkin. Tilga olingan qirralarning qaysilariga ustuvorlik berish tekshirilayotgan asarning tabiatini hamda adabiy ta'lildan kuzatilgan maqsaddan kelib chiqib, belgilanadi.

Rus metodist olimi N.Sobolev o'quv tahlilida qiyoslash usulidan foydalanish

nazariyasini ishlab chiqdi. U o'quv tahlilida qiyoslash didaktik samara keltirishi uchun zarur bo'lgan bir necha shartlarni ko'rsatib beradi:

- 1) qiyoslash aniq maqsadga qaratilgan bo'lishi;
- 2) solishtirish muhim va turg'un belgilarga asoslanishi;
- 3) qiyoslashda mantiqiy izchillikka amal qilinishi;
- 4) solishtirish kechimida o'xhash va ayirmali jihatlar izohlanishi.

6-7 sinf adabiyot darsligida bitta mavzu doirasida ikkita ijodkor hayoti va ijodi haqida ma'lumotlar berilishi va ijodiy namunalaridan bir xil mavzudagi asarlarning berilishi o'quvchida asarlar yuzasidan fikrlash ko'nikmasini yuzaga keltiradi. Misol uchun Azim Suyunning "Yomg'ir yog'ib o'tdi..." she'ri va Omon Matjonning "Osmon sog'inch kabi..." she'rlarining berilishida ifodalangan tuyg'ularni solishtirish mumkin.. Ikkita she'rni qiyoslash jarayonida venn diagrammasi, T chizma, jadval kabi organayzerlardan foydalanib o'quvchini fikrlash ko'nikmasini rivojlantirish mumkin.

Yomg'ir yog'ib o'tdi,
Osmon yuzidan
Nafarmon bulutlar yig'di etagin.
Oftob ham ko'rindi ko'hna izidan
Va boshlab yubordi dilbar ertagin.

Ushbu she'r Azim Suyunning tabiat bilan hissiy munosabatlarini ifodalagan. Tabiat hodisalarini lirik qahramon ruhiyatiga ta'sirini orqali tasavvur qilish mumkin.

Osmon sog'inch kabi poyonsiz, yashil,
Qirlar lahza sayin o'zga turlanar.
"Qur-qur"lar to'lmoqda ko'kka muttasil,
Qaytib kelayotir yurtga turnalar

She'rlarni aloqadorlik asosida qiyoslab tahlil qilish maqsadidan o'quvchilarga quyidagi savollar bilan murojaat qilish mumkin. 1.She'rlar necha banddan tashkil topgan? 2.She'rda qanday g'oya ifodalangan? 3.She'rda qanday bir xillikni kuzatish mumkin? 3.She'rlarda nimalar tasvirlangan? 4.She'rlarda bir xil so'zlardan

foydalanilganmi? 5. She'rlarda qanday tuyg'ular ifodalangan?

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, qiyoslashning samaradorligi solishtirilayotgan narsa-hodisalarning har biriga xos qirralarning qanchalik puxta o'rganilishiga zamin yaratadi. Qiyoslanayotgan narsa-hodisalarning mohiyatini anglab yetgan o'quvchilar ulardagi o'rtoq va ayirmali qirralarni o'zлari kashf etadilar. Shu tariqa ularda akseologik (baholash) ko'nikmasi ham shakllana boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Кисилев А. К. Сопоставление как прием активизации эмоционального восприятия и интеллектуальной деятельности старшеклассников в литературном образовании. Автореф. дисс. канд. пед. наук. -Москва, 1999.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi "Umumiy o'rta ta'lim va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi 187-son qarori.
3. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 6-sinfi uchun darslik. Z.Mirzayeva, K.Jalilov. Respublika ta'lim markazi, Toshkent-2022